

2.585
0-32.

**A.A. PULATOV, O.M. SAVATYUGIN,
SH.SH. ISROILOV**

BADMINTON NAZARIYASI VA USLUBIYATI



TOSHKENT


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

A.A.PULATOV, O.M. SAVATYUGIN, SH.SH. ISROILOV

BADMINTON NAZARIYASI VA USLUBIYATI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHIKENT – 2017



UO'K: 796.344 (075.8)

KBK 75.565

P-92

P-92 A.A.Pulatov, O.M. Savatyugin, Sh.Sh. Isroilov.
Badminton nazariyasi va uslubiyati. (O'quv qo'llanma). –T.: «Fan va texnologiya», 2017, 300 bet.

ISBN 978–9943–11–647–4

Mazkur o'quv qo'llanma amaldagi Davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi va fan dasturi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti talabalari, magistrantlari, doktorantlari, olimpiya zaxiralari kolleji o'quvchilari, pedagog kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tarmoq markazi tinglovchilari, badminton bo'yicha sport maktablari, klublari va tashkilotlarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislariga mo'ljallangan.

UO'K: 796.344 (075.8)

KBK 75.565

Taqrizchilar:

Abduraxmanov F.A. – O'zDJTI dotsenti, Gandbol bo'yicha O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan trener;
Qurbonova M.A. – Toshkent shahar Mirobod tumani 2-sonli BO'SM direktori, pedagogika fanlari nomzodi.

ISBN 978–9943–11–647–4

KIRISH

O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgan kundan boshlab Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning tashabbusi hamda uning bevosita rahbarligida millat genofondini shakllantirish, sog'lom-barkamol avlodni tarbiyalash vositasi bo'lmish jismoniy tarbiya va sport Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tarkibiga kiritilgan bo'lib, o'tgan davr ichida ushbu sohada asrlarga teng islohotlar amalga oshirildi. Respublikamizning barcha hududlarida, hatto uzoq-uzoq qishloq joylarda ham jahon standartlariga mos sport inshootlari o'ziga xos go'zal infrastrukturallari bilan birgalikda bunyod etildi. Mazkur savobli ishlar ayni kunda amaldagi xalqchil siyosatni yanada jadal davom ettirayotgan yurtimizning bugungi yo'l boshchisi Sh.M.Mirziyoyevning g'ayrat-shijoati va konseptual dasturlari asosida o'z ko'lamini kengaytirmoqda, jismoniy tarbiya va sport, shu jumladan, professional sport ham, tezkor sur'atlar bilan cho'qqi sari qanot yozmoqda, Jahon, Osiyo musobaqalari va Olimpiya o'yinlari miqyosida yuksak natijalarga erishib, Vatanimiz shuhratini jahon hamjamiyati oldida tarannum etib kelmoqda. Lenin ta'kidlash joizki, sport natijalari to'xtab qolmaydi, musobaqalarda keskinlashib borayotgan raqobat yuksak mahoratli sportchilar tarkibini kengaytirish, ommaviy sportdan professional sportga o'tish sur'atini jadallashtirish zaruriyatini tug'dirmoqda. Buning uchun 2000-yildan boshlab yurtimizda joriy etilgan "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" kabi ommaviy sport musobaqalari saviyasini ko'tarish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish, uni xalqimiz, ayniqsa, o'quvchi-yoshlarimiz hayotining kundalik ehtiyojiga aylantirish, professional sport salohiyatini yanada ko'tarish ishlarini jadallashtirishga qodir raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, ixtisoslashgan ta'lim muassasalari faoliyati – zamonaviy bilim berish, o'rgatish (o'qitish) sifatini ko'tarish, ushbu jarayonda ilg'or texnologiyalar va xorijiy tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur

muammolar yechimi, o'z navbatida, xalqaro mezonlarga mos o'quv adabiyotlarini yaratish bilan bog'liqdir.

Taqdim etilayotgan "Badminton nazariyasi va uslubiyati" o'quv qo'llanmasi ana shu mezonlarga maksimal yaqinlashtirilgan bo'lib, amaldagi o'quv rejasi va na'munaviy o'quv dasturi talablari asosida tayyorlangan.

Ushbu o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda mualliflar badminton bilan bog'liq ayrim obyektiv qiyinchiliklarga yuzma-yuz keldi. Gap shundaki, bu sport turi yurtimizda rasman 1963-yildan boshlab rivojlana boshladi. Badminton bo'yicha chop etilgan o'quv adabiyotlari soni jahonda ham, hamdo'stlik davlatlarida ham o'ta chegaralangan.

Badminton o'quv fani sifatida 2014-yil O'zDJTning o'quv rejasiga kiritildi va shu yildan boshlab ushbu yo'nalishda kadrlar tayyorlash amalga oshirila boshlandi.

Mazkur o'quv qo'llanma ilk bor nashrga tayyorlangan bo'lib, unda na'munaviy o'quv dasturida qayd etilgan barcha mavzular mazmuni jadvallar (21 ta), rasmlar (79 ta), andozalar (9 ta), innovatsion va vaziyatli o'rgatuvchi mashqlar asosida ochib berilgan. Shuningdek, qo'llanmadan bilim va amaliy ko'nikmalarni nazorat qilish hamda baholashga mo'ljallangan namunaviy test topshiriqlari joy olgan.

Qo'llanma "kirish", 23 ta bob va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini o'z ichiga kiritgan (15 ta asosiy, 14 ta qo'shimcha adabiyotlar va 6 ta internet saytlari) bo'lib, "kirish" va 1, 11, 15, 19, 20, 23 boblar dotsent A.A.Pulatov; 3, 4, 5, 6, 7, 8, 12, 13, 14, 17, 18, 21, 22 boblar badminton bo'yicha O'zbekiston terma jamoasi bosh treneri, sport ustasi O.M.Savatyugin; 2, 9, 10, 23 boblar o'qituvchi Sh.Sh.Isroilov tomonidan tayyorlangan.